e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/tcgy1g69

PEDAGOGIK DISKURS KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK PRINSIPLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ochilova Nilufar Ulmasovna
Buxoro davlat pedagogika instituti, doktorant (PhD).
e-mail: ochilovanilufar@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-2975-8136

Annotatsiya.
Maqolada bo'lajak chet tili o'qituvchilarining pedagogik diskurs kompetensiyasini rivojlantirish uchun zarur didaktik prinsiplar va pedagogik shart-sharoitlar tizimi asoslandi. Nazariy tahlil, qiyosiy kategoriyalash va shart-sharoitlarni loyihalash usullari orqali kasbiy kontekstlilik, dialogiklik, diskursiv anglash, adaptivlik, refleksiv dalillilik va etik xavfsizlik prinsiplari ajratildi. Ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi to'rtta shart — pedagogik diskursga muntazam singdirish, nutqiy tanlovlarni kontrastiv anglatish, takroriy ijro va qayta loyihalash sikli hamda dalilga asoslangan xavfsiz qayta aloqa muhiti taklif etildi. Natijada prinsip va shartlarni o'zaro aralashtirmaydigan hamda o'quv jarayonini loyihalashga xizmat qiluvchi konseptual matritsa ishlab chiqildi.
Kalit so'zlar: didaktik prinsip, pedagogik shart-sharoit, pedagogik diskurs, dialogiklik, adaptivlik, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Очилова Нилуфар Ульмасовна
Бухарский государственный педагогический институт, докторант (PhD).

Аннотация.
В статье обоснована система дидактических принципов и педагогических условий, необходимых для развития компетенции педагогического дискурса у будущих учителей иностранных языков. Посредством теоретического анализа, сравнительной категоризации и проектирования условий выделены принципы профессиональной контекстуальности, диалогичности, дискурсивного осмысления, адаптивности, рефлексивной доказательности и этической безопасности. Предложены четыре условия, обеспечивающие реализацию данных принципов: систематическое погружение в педагогический дискурс, контрастивное осмысление речевого выбора, цикл повторного выполнения и перепроектирования, а также безопасная среда доказательно обоснованной обратной связи. В результате разработана концептуальная матрица, разграничивающая принципы и условия и предназначенная для проектирования образовательного процесса.
Ключевые слова: дидактический принцип, педагогические условия, педагогический дискурс, диалогичность, адаптивность, рефлексия, профессиональная подготовка.

DIDACTIC PRINCIPLES AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING PEDAGOGICAL DISCOURSE COMPETENCE

Ochilova Nilufar Ulmasovna
Bukhara State Pedagogical Institute, Doctoral Student (PhD).

Abstract.
The article substantiates a system of didactic principles and pedagogical conditions necessary for developing pedagogical discourse competence among prospective foreign language teachers. Through theoretical analysis, comparative categorization, and the design of pedagogical conditions, the principles of professional contextualization, dialogicity, discursive awareness, adaptability, reflective evidence-based reasoning, and ethical safety were identified. Four conditions for implementing these principles are proposed: systematic immersion in pedagogical discourse, contrastive awareness of speech choices, a cycle of repeated performance and redesign, and a safe environment for evidence-based feedback. As a result, a conceptual matrix was developed that clearly distinguishes between principles and conditions and serves as a framework for designing the educational process.
Keywords: didactic principle, pedagogical conditions, pedagogical discourse, dialogicity, adaptability, reflection, professional training.

ISSN 3060-5059 (Online)

Kirish. Boʻlajak chet tili oʻqituvchisining nutqi dars mazmunini yetkazish vositasigina emas, balki oʻquvchi e'tibori, fikrlashi va ishtirokini tashkil etuvchi pedagogik harakatdir. Shunga qaramay, oliy ta'limdagi nutqiy tayyorgarlik koʻpincha til toʻgʻriligi va umumiy muloqot vazifalari bilan chegaralanadi. Talaba ravon gapira olishi mumkin, lekin noaniq koʻrsatma berishi, savoldan keyin yetarli kutmasligi yoki xatoni yuzni yoʻqotishga olib keladigan shaklda tuzatishi ehtimoli saqlanib qoladi.

Soʻnggi tadqiqotlarda diskursiv kompetensiya kasbiy kommunikatsiya, ma'no yaratish, matn yaxlitligi va kontekstga moslashish bilan bogʻlanadi. Oʻzbekistondagi yaqin tadqiqotlar grammatik-diskursiv kompetensiya yoki flipped learning vositasida umumiy diskursiv kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur maqola esa oʻqituvchining aynan pedagogik maqsadli interaksiyasini rivojlantiradigan prinsiplar va shartlarni bir-biridan ajratishga e'tibor beradi.

Prinsip faoliyatni loyihalashga yoʻnalish beradigan me'yoriy gʻoya boʻlsa, pedagogik shart ushbu gʻoyaning real oʻquv jarayonida ishlashini ta'minlaydigan tashkiliy-didaktik vaziyatdir. Tadqiqotning maqsadi pedagogik diskurs kompetensiyasini rivojlantirish prinsiplarini asoslash va ularni amalga oshiruvchi yetarli shart-sharoitlar majmuini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqolaning dissertatsiyadagi alohida muammosi – prinsiplar bilan ularni roʻyobga chiqaruvchi tashkiliy-pedagogik shartlarning aralashtirilishi. Shu bois tadqiqot doirasi aniq chegaralandi: u alohida model yoki mashqlar ketma-ketligini takrorlash emas, oʻquv jarayonini loyihalash mezonlarini asoslashdir. Bunday chegaralash bir xil "pedagogik diskurs kompetensiyasi" atamasi ostida turli maqolalarda aynan bir natijani takrorlashning oldini oladi va ushbu ishning mustaqil ilmiy vazifasini belgilaydi.

Tahlil birligi sifatida kasbiy kontekstlilik, dialogiklik, diskursiv anglash, adaptivlik, refleksiv dalillilik va etik xavfsizlik olindi. Manbalardagi fikrlar mavzuga yaqinligi uchun emas, aynan shu birlikni izohlash quvvatiga koʻra saralandi. Har bir nazariy hukmning kasbiy tayyorgarlikdagi amaliy oqibati, uni kuzatish mumkin boʻlgan belgisi va notoʻgʻri qoʻllanganda yuzaga keladigan xavfi qayd etildi. Natijada terminlarni koʻpaytirishdan koʻra, sabab – pedagogik harakat – kuzatiladigan oqibat zanjirini tiklashga ustuvorlik berildi.

Tadqiqot vositasi sifatida prinsip – shart – faoliyat – dalil matritsasi ishlab chiqildi. Uning mazmuniy validligi uch savol bilan tekshirildi: vosita maqolada qoʻyilgan muammoni bevosita ochadimi; talabaning kuzatiladigan kasbiy harakatini yuzaga chiqaradimi; olingan dalil asosida keyingi pedagogik qarorni qabul qilish mumkinmi. Shu mezonlar nazariy tavsif bilan amaliy topshiriq oʻrtasidagi uzilishni kamaytiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Material sifatida kommunikativ kompetensiya, sinf diskursi, refleksiv amaliyot va boʻlajak til oʻqituvchisini tayyorlashga doir ishlar, CEFR Companion Volume hamda EPOSTL mezonlari olindi. Dorofeevaning kognitiv-pragmatik modeli umumiy kasbiy diskurs kompetensiyasini anglash uchun, Timoxinaning modeli esa professional kommunikativ tayyorgarlikni tizimli tashkil etish uchun qiyosiy manba vazifasini bajardi. Ularning komponentlari tayyor shaklda koʻchirilmasdan, pedagogik diskursning real vaqtli boshqaruv xususiyatiga nisbatan qayta tahlil qilindi.

Dastlab manbalardagi takrorlanuvchi talablar induktiv kodlandi. Keyin ular uch savol asosida saralandi: talab oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi ma'no yaratishni boshqaradimi; kuzatiladigan nutqiy tanlovga olib keladimi; ta'lim muhiti orqali maqsadli rivojlantirilishi mumkinmi? Yakuniy bosqichda prinsip – shart – natija aloqasi mantiqiy modellashtirildi.

Tadqiqot nazariy-loyihaviy xarakterga ega. Taklif etilgan shartlarning samarasi haqida empirik foizlar keltirilmaydi; ularning mazmuniy asoslanganligi, oʻzaro zarurligi va amaliy kuzatiluvchanligi natija sifatida taqdim etiladi.

Tahlil natijasida muammoning ichki tuzilmasi toʻrtta oʻzaro bogʻlangan yoʻnalishda ochildi: autentik kasbiy vaziyatga singdirish; kontrastiv nutqiy tanlovni anglatish; takroriy ijro va qayta loyihalash; xavfsiz hamda dalilli qayta aloqa muhiti. Ular oddiy bosqichlar roʻyxati emas. Har bir yoʻnalish oldingisida hosil boʻlgan ma'lumotni yangi kasbiy qarorga aylantiradi, oxirgi yoʻnalish esa dastlabki qarorning vaziyatga mosligini qayta tekshirish imkonini beradi.

Birinchi yoʻnalish – autentik kasbiy vaziyatga singdirish – talabaning vaziyatni tayyor stereotip orqali emas, pedagogik maqsad va mavjud toʻsiq nuqtayi nazaridan oʻqishini talab qiladi. Bu yerda asosiy mahsulot yakuniy replika emas, vaziyatning funksional tashxisidir. Tashxis aniq boʻlmasa, tashqi tomondan chiroyli nutqiy vosita ham oʻquvchi ehtiyojiga mos kelmasligi mumkin.

Ikkinchi yoʻnalish, ya'ni kontrastiv nutqiy tanlovni anglatish, bitta avtomatik yechimdan voz kechishni koʻzda tutadi. Talaba kamida ikki-uch variantning pedagogik foydasi, ehtimoliy cheklovi va oʻquvchi uchun yaratadigan imkoniyatini qiyoslaydi. Variantlar grammatik shakliga qarab emas, maqsadga xizmat qilishi va keyingi oʻquvchi harakatini ochishiga qarab tanlanadi.

Uchinchi yoʻnalishda takroriy ijro va qayta loyihalash nazariy fikrni bajarish daliliga aylantiradi. Masalan, talabani bitta "toʻgʻri" replika bilan cheklamasdan, turli oʻquvchi javoblariga mos variantlarni xavfsiz mikromuhitda sinatish. Ushbu vaziyatda qarorning sifati oʻqituvchining niyati bilangina belgilanmaydi; oʻquvchining navbatdagi javobi, topshiriqni boshlashi, fikrini kengaytirishi yoki muloqotdan chekinishi ham tahlilga kiritiladi.

Toʻrtinchi yoʻnalish – xavfsiz hamda dalilli qayta aloqa muhiti – birinchi bajarishni yakuniy natija deb qabul qilmaydi. Talaba dalilni koʻrib, dastlabki taxminini saqlashi, aniqlashtirishi yoki rad etishi mumkin. Shu tariqa refleksiya "menga yoqdi – yoqmadi" shaklidagi umumiy taassurotdan chiqib, qaror va oqibat oʻrtasidagi aloqani qayta loyihalash faoliyatiga aylanadi.

Taklif etilgan yechimning markaziy koʻrsatkichi har bir prinsipning oʻquv topshirigʻi, oʻqituvchi yordami va talaba

ISSN 3060-5059 (Online)

mahsulotida izchil aks etishi hisoblanadi. Bu dalil alohida replikaning mavjudligini sanash bilan cheklanmaydi. U nutqiy harakatning qayerda, nima maqsadda qo'llangani, undan keyin o'quvchi uchun qanday imkoniyat ochilgani va talaba bu oqibatni qanday izohlaganini bir butun holda ko'rishni talab qiladi.

NATIJALAR

Birinchi prinsip – kasbiy kontekstlilik. Pedagogik ibora alohida o'rgatilmay, dars maqsadi, o'quvchi yoshi, til darajasi va vazifa bosqichi bilan bog'lanishi kerak. Ikkinchi prinsip – dialogiklik: o'qituvchi nutqi tayyor javobni olish emas, o'quvchi fikrini yuzaga chiqarish va davom ettirishga xizmat qiladi. Uchinchi prinsip – diskursiv anglash bo'lib, talaba bir nutqiy niyatning turli shakllarini va bir shaklning turli pragmatik oqibatlarini payqaydi.

To'rtinchi prinsip – adaptivlik. Talaba rejalashtirilgan skriptni mexanik bajarishdan ko'ra, o'quvchi javobi, sukut, noto'g'ri tushunish yoki yangi savolga qarab diskurs strategiyasini o'zgartiradi. Beshinchi prinsip – refleksiv dalillilik: o'zini baholash "dars yaxshi o'tdi" kabi umumiy hukmga emas, transkript, audio-video lavha yoki kuzatuv belgisiga tayanadi. Oltinchi prinsip – etik xavfsizlik; pedagogik ta'sir o'quvchi sha'ni, ishtirok huquqi va xato qilish xavfsizligini saqlashi lozim.

Prinsiplarni ishlatadigan birinchi shart pedagogik diskursga muntazam singdirishdir. Talaba bir martalik mikrodars bilan cheklanmay, ma'ruza, seminar va amaliyot davomida ko'rsatma, savol, izoh, skafolding, baholash va yakunlash janrlarini kuzatadi hamda bajaradi. Ikkinchi shart – kontrastiv anglatish: samarali va samarasiz ikki diskurs varianti oqibatlari bo'yicha taqqoslanadi.

Uchinchi shart takroriy ijro va qayta loyihalash siklidir: ssenariy tuzish, ijro, dalil ajratish, muqobil nutqiy yechim yaratish va qayta ijro. To'rtinchi shart xavfsiz, mezonli qayta aloqa muhiti bo'lib, unda shaxs emas, aniq nutqiy harakat va uning o'quvchi ishtirokiga ta'siri muhokama qilinadi. Shartlar alohida ishlaganda emas, yagona siklda bog'langanda rivojlantiruvchi kuchga ega bo'ladi.

1-jadval. Prinsiplarni amalga oshiruvchi pedagogik shartlar

Prinsip	Asosiy shart	Kutiladigan diskursiv o'zgarish
Kasbiy kontekstlilik	Diskurs vaziyatlariga muntazam singdirish	Iborani maqsad va vaziyatga bog'lab tanlash
Dialogiklik va anglash	Kontrastiv namuna tahlili	Nutqiy tanlov oqibatini oldindan ko'rish
Adaptivlik	Ijro-qayta loyihalash-qayta ijro sikli	Kutilmagan javobga strategik moslashish
Refleksiv dalillilik va etik xavfsizlik	Mezonli, yuzni saqlovchi qayta aloqa	Dalil asosida xavfsiz nutqni qayta qurish

Olingan natijaning ilmiy ahamiyati didaktik talablarni amalga oshirish mexanizmlaridan ajratgan holda ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish bilan belgilanadi. Shu jihat uni to'plamdagi boshqa maqolalardan ajratadi: mazkur ish umumiy mavzuni yana bir bor bayon qilmaydi, balki dissertatsiya konstruksiyasining faqat o'ziga biriktirilgan bo'g'inini chuqurlashtiradi. Boshqa maqolalarda ishlab chiqilgan model, mezon yoki texnologiya bu yerda natija sifatida da'vo qilinmaydi.

Amaliyotda prinsip – shart – faoliyat – dalil matritsasi auditoriya mashg'uloti, mikrodars yoki pedagogik amaliyotdan keyingi tahlilga moslashtirilishi mumkin. O'qituvchi dastlab vaziyat va maqsadni beradi, talabalar individual qaror tayyorlaydi, keyin kichik guruhda variantlar oqibati qiyoslanadi. Yakunda tanlangan yechim bajarilib, faqat kuzatilgan dalil asosida qayta ko'rib chiqiladi. Bu tartib tayyor javobni o'qituvchidan kutish odatini kamaytiradi.

Natijani qo'llashda kontekst chegarasi saqlanishi zarur. Bir vaziyatda samarali bo'lgan diskurs yurishi boshqa yosh guruhi, til darajasi yoki munosabat tarixida ayni ta'sirni bermasligi mumkin. Shuning uchun taklif etilgan vosita qat'iy retsept emas, asoslangan tanlovni tashkil etuvchi ramka sifatida talqin qilinadi. Uning qiymati bir xil javob ishlab chiqarishda emas, qaror sababini va oqibatini ko'rinadigan qilishdadir.

Keyingi empirik tekshiruvda har bir prinsipning o'quv topshirig'i, o'qituvchi yordami va talaba mahsulotida izchil aks etishi bir nechta vaqt nuqtasida to'planishi maqsadga muvofiq. Ekspert bahosi bilan bir qatorda talabaning izohi va o'quvchi javobini qo'shish natijani faqat tashqi kuzatuvga bog'lab qo'ymaydi. Shuningdek, bir martalik muvaffaqiyatdan ko'ra yangi vaziyatda saqlanadigan o'zgarishni aniqlash kompetensiyaning haqiqiy transferini ko'rsatadi.

J. J. Jalolov hamda O'. Hoshimov va I. Yoqubovning metodik qarashlarida chet til ta'limining nutqiy yo'nalganligi, onglilik, faollik va vaziyatga asoslanish tamoyillari yetakchi o'rin tutadi. O'. Tolipov va M. Usmonboyeva didaktik prinsipni texnologik jarayonda amalga oshiradigan shart va vositalar bilan bog'laydi. G. Makhkamova va A. Amirkulov O'zbekistonning ko'p tilli ta'lim muhiti uchun til tajribasi transferi hamda kasbiy yo'nalganlikni hisobga oluvchi prinsiplarni asoslagan. Ushbu mahalliy manbalar maqoladagi kasbiy kontekstlilik, dialogiklik va adaptivlik prinsiplarini umumiy deklaratsiyadan aniq tashkiliy-pedagogik shartlarga o'tkazishda muhimdir.

MUHOKAMA

Taklif etilgan tizim umumiy kompetensiyaviy yondashuvni pedagogik diskursning mikrodarajadagi tanlovlari bilan bog'laydi. Dorofeeva ta'kidlagan kontekstual va kognitiv-pragmatik yo'nalish mazkur ishda darsning interaktiv ehtiyojiga konkretlashtirildi; Poluykova va Ustinovaning diskurs turiga ko'ra ko'nikmalarni aniqlash g'oyasi esa pedagogik vazifa domenlariga ko'chirildi.

Prinsip va shartning ajratilishi amaliy jihatdan muhim. Masalan, dialogiklikni e'lon qilishning o'zi yetarli emas;

talabaga o‘quvchi javobini tinglash, kutish va davom ettirish mumkin bo‘lgan qayta ijro muhiti yaratilmasa, prinsip deklarativ bo‘lib qoladi. Aksincha, videoyozuvning mavjudligi ham refleksiv mezonsiz o‘z-o‘zidan kasbiy o‘sishga olib kelmaydi.

Tizim o‘quv faniga qo‘shimcha mavzu sifatida emas, mavjud metodika, amaliy til va pedagogik amaliyot fanlarini vertikal bog‘lovchi dizayn sifatida joriy etilishi mumkin. Keyingi bosqichda shartlar ekspertizasi, turli kurslardagi amalga oshirish intensivligi va mikrodars artefaktlari bo‘yicha ta’sir mexanizmi tekshirilishi zarur.

XULOSA

Pedagogik diskurs kompetensiyasini rivojlantirish uchun oltita didaktik prinsip va ularni faoliyatga aylantiradigan to‘rtta pedagogik shart asoslandi. Tizimning ilmiy qiymati umumiy diskursiv kompetensiyadan farqli ravishda pedagogik maqsad, real vaqtli javobchanlik va etik ta’sirni markazga qo‘yishidadir. Matritsa o‘quv modulini loyihalash, mashg‘ulotlarni kuzatish va keyingi empirik tadqiqot gipotezalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume.* – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 280 p. – ISBN 978-92-871-8621-8. – URL: https://book.coe.int/en/education-and-modern-languages/8150-common-european-framework-of-reference-for-languages-learning-teaching-assessment-companion-volume.html
2. Newby D., Allan R., Fenner A.-B., Jones B., Komorowska H., Soghikyan K. *European Portfolio for Student Teachers of Languages: A Reflection Tool for Language Teacher Education.* – Graz: European Centre for Modern Languages, Council of Europe, 2007. – 90 p. – ISBN 978-92-871-6207-6. – URL: https://www.ecml.at/en/Thematic-areas/Language-teacher-competences/Council-of-Europe-Resources
3. Walsh S. *Exploring Classroom Discourse: Language in Action.* – London; New York: Routledge, 2011. – 256 p. – DOI: 10.4324/9780203827826. – URL: https://doi.org/10.4324/9780203827826
4. Дорофеева А. С. *Формирование дискурсивной компетенции будущих учителей иностранных языков* : дис. ... канд. пед. наук : 5.8.7. – Калининград, 2025. – 213 с. – URL: https://www.dissercat.com/content/formirovanie-diskursivnoi-kompetentsii-budushchikh-uchitelei-inostrannykh-yazykov
5. Полуйкова С. Ю., Устинова Т. В. Содержание дискурсивной компетенции будущего учителя иностранного языка как адресанта просветительского дискурса // *Филологические науки. Вопросы теории и практики.* – 2018. – № 10 (88), ч. 2. – С. 411–415. – DOI: 10.30853/filnauki.2018-10-2.41. – URL: https://doi.org/10.30853/filnauki.2018-10-2.41
6. Тимохина Е. В. *Методика формирования профессионально-коммуникативной компетенции будущего учителя иностранного языка* : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02. – Нижний Новгород, 2015. – 183 с. – URL: https://disser.uz/metodika-formirovanija-professionalno-kommunikativnoj-kompetencii-buduwego
7. Машрабекова А. М. Современные подходы в формировании коммуникативной компетенции будущего преподавателя иностранного языка // *Молодой ученый.* – 2014. – № 1 (60). – С. 557–559. – URL: https://moluch.ru/archive/60/8609
8. Hymes D. H. On Communicative Competence // *Sociolinguistics: Selected Readings* / ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293. – URL: https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3796237
9. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // *Applied Linguistics.* – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47. – DOI: 10.1093/applin/I.1.1. – URL: https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1
10. Schön D. A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action.* – New York: Basic Books, 1983. – 374 p. – ISBN 0-465-06874-X. – URL: https://openlibrary.org/books/OL3511128M/The_reflective_practitioner
11. Jalolov J. J. *Chet tili o‘qitish metodikasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b. – ISBN 978-9943-02-498-4. – URL: https://akbt.urdu.uz/uz/books/3122
12. Hoshimov O‘., Yoqubov I. *Ingliz tili o‘qitish metodikasi.* – Toshkent: Sharq, 2003. – 304 b. – URL: https://www.renessans-edu.uz/files/books/2024-11-27-05-38-21_7796dbc9a07190e6f9f159253416a02a.pdf
13. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.* – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. – ISBN 5-648-03428-5. – URL: https://library.dtpi.uz/uz/adabiyotlar/oquv-qollanma/pedagogik-texnologiyalarning-tatbiqiy-asoslari
14. Makhkamova G., Amirkulov A. Didactic Principles in Teaching Additional Foreign Language in Uzbekistan Context // *International Journal of Education.* – 2020. – Vol. 12, No. 1. – P. 1–15. – DOI: 10.5296/ije.v12i1.16463. – URL: https://doi.org/10.5296/ije.v12i1.16463